

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA G‘OYAVIY TARBIYANING USTUVOR YO‘NALISHLARI

*Yuldasheva Matluba Munavarovna
falsafa fanlari nomzodi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrasи dotsenti*

Annotatsiya

Maqlolada ommaviy axborot vositalari ommaviy kommunikatsiyaning eng muhim tarkibiy qismi ekanligiga hamda ommaviy axborot vositalari dunyoda mafkuraviy kurash maydoniga aylanib, turli xalqlar turmush tarziga, ongiga, e’tiqodiga, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashining shakllanishiga, hayotiy maqsad, xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil ekanligiga e’tibor qaratillgan.

Kalit so’zlari: Ommaviy axborot, kommunikatsiya, mafkura, g’oya, lamiyat, inson, tahdid, fikr, siyosiy ong, qarama-qarshilik, dunyoqarash, mohiyat, ijtimoiy qatlam

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim o‘rin tutadi. Ular orqali, eng avvalo, insonlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy hayotida, hamda dunyo hamjamiyati, davlatlararo munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zarishlardan xabardor bo‘ladilar. Ularni idrok etib, o‘z munosabatlarini bildiradilar. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmokdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas. Shu sababli ham ommaviy axborot vositarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so‘z erkinligi prinsiplarini amalda ta’minlashga rishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda”^[27].

Ommaviy axborot vositalari ommaviy kommunikatsiyaning eng muhim tarkibiy qismidir. “Kommunikatsiya” so‘zi lotincha – “communicatio” – xabar, uzatish degan ma’nolarni bildirib, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga maxsus moslamalar, vositalar orqali signallar, informatsiya uzatishni anglatadi^[28]. Kommunikatsiya jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida turlicha namoyon bo‘ladi.

^[27] Каранг: Российская социологическая энциклопедия. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1998. – С. 202.

^[28] Каранг: “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Конуни (яниги таҳрири). Ўзбекистон Республикасининг оммавий-ахборот воситалари тўғрисидаги конунчилик хужжатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 4-5.

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Kommunikatsiya individlar, guruqlar, tashkilotlar, davlatlar, madaniyatlar o'rtasida ma'lum belgilar, til yordamida amalga oshiriladi. SHundan kelib chiqib, 1) shaxslararo; 2) ilmiy; 3) ommaviy kommunikatsiya turlari ajratib ko'rsatiladi. Qisqacha aytganda, kommunikatsiya jamiyatdagi sub'ektlarning bir-biriga nisbatan o'zaro informatsion ta'siri jarayonidir. Bu jarayonning asosiy mazmunini shaxslar o'rtasidagi munosabatlardan tortib to umumbashariy mazmunga ega bo'lgan munosabatlar doirasigacha bo'lgan axborot uzatish, almashish, tahlil etish va ularni yaratish jarayonlari tashkil etadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari deganda, matbuot, radio, televiedenie tushuniladi. Shuningdek, bugungi kunda Internet tarmog'ining ham keng jamoatchilikka axborot etkazib berishdagi ulkan imkoniyatlarini inobatga olib, ommaviy axborot vositalari qatorida sanash mumkin.

Umuman olganda esa, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida "Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir"^[29], – deb belgilab qo'yilgan.

Ommaviy axborot vositalari biz tadqiq etayotgan muammo doirasida o'zining ikki asosiy jihat bilan ahamiyatlidir. Xususan, birinchidan, ommaviy axborot vositalari mafkuraviy tahdidlarni amalga oshirishda, ikkinchidan, turli yot va begona g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurashda ham katta o'rinn tutadi.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini uyg'otish, shakllantirish va ularni muayyan manfaatlar asosida maqsadli yo'naltirishdan iborat. M.Bekmurodov fikricha, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy fikr sub'ektlariga ko'rsatadigan ta'siri odatda ikki yo'nalishda, ya'ni jamoatchilik fikrining boshlanishi, shakllanishi jarayonida va uning bevosita amal qilish jarayonlarida namoyon bo'ladi. SHakllantirish bosqichida jamoatchilik fikrini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalariga keng va aktiv jalb etishga qaratilsa, amal qilish jarayonlarida jamoatchilik fikrini barqaror saqlab turish va uning ta'sirchanligini har tomonlama oshirishga jiddiy e'tibor qaratiladi^[30].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ommaviy axborot vositalarining jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni tobora yuksalib borayotganini ko'rish mumkin. Bu, birinchidan,

²⁹ Карапт: Бекмуродов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри.– Тошкент: Фан, 1999. – Б. 170.

³⁰ Карапт: Панарин И.Н. Информационная война и geopolитика. – М.: Поколение, 2006. – 345 с.

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

ommaviy axborot vositalarining yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ko‘rsatayotgan ta’sirining kuchayib borishi bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, odamlarning axborotga bo‘lgan ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda hayotimizni axborotsiz tasavvur etishimiz qiyin. Har qanday odam tevarak-atrofida, mamlakatda, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida biron-bir manbadan axborot olishga intiladi.

Uchinchidan, zamonaviy tezkor va aniq texnologiyalarning (radio, televidenie, kompyuter, faksimil apparatlari, sun’iy yo‘ldoshlar v.h.) yaratilishi natijasida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari kengaymoqda.

Bugungi kunga kelib axborot jamiyatdagi eng muhim resurslardan biriga aylanib ulgurdi. Shu ma’noda, XXI asrga “axborot texnologiyalari” asri deb nom berilgani o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Dunyodagi aksariyat davlatlarda axborot sanoatini rivojlantirish, axborot sohasida tezkorlik, operativlikni ta’minlashga qaratilgan yuksak texnika va texnologiyalarni yaratishga strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Albatta, bu insoniyat axborot madaniyatining rivojlanib borayotganining dalilidir.

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSH Strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda berar ekan. Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida “axborot quroli”ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 mln. dollar sarf qilinadi^[31].

Bu faqat uning iqtisodiy jihat, uning siyosiy jihat esa o‘z shaxsiy manfaatlariga o‘ta arzon, o‘ta qulay yo‘llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. SHu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. SHuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta’minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Ammo, har qanday axborot, ayniqsa, ijtimoiy xarakterdagi axborotlar o‘zida muayyan g‘oya va qarashlar, ularning konkret mazmunini aks ettirishini inobatga olsak, bu boradagi tezkorlik, ommaviylik va qulaylik g‘arazli siyosiy, geosiyosiy kuchlar tomonidan mafkuraviy tahdidlarni amalga oshirish uchun ham ulkan imkoniyatlarni paydo qilmoqda.

Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari dunyoda mafkuraviy kurash maydoniga aylanib, turli xalqlar turmush tarziga, ongiga, e’tiqodiga, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh

³¹ Сайдов Х. Матбуот – миллий манбаатлар химоячиси. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 20-21.

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

avlod dunyoqarashining shakllanishiga, hayotiy maqsad, xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omilga aylanmoqda.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab o‘z manfaatlarni keng yoyishning eng maqbul usuli - axborot xurujlari bo‘lsa, eng samarali vosita - axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi. Axborot xurujlarining tez-tez uyuşhtirilayotgani aslida “urush”ga munosabatning o‘zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Turli kuch va markazlar tomonidan o‘z manfaatlari doirasini kengaytirish maqsadida harbiy texnika emas, axborot bilan qurollangan xurujlarni uyuşhtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan.

Shuning uchun ham turli g‘arazli geostrategik maqsadlarni ko‘zlagan kuchlar mamlakatimiz hayoti haqida real voqelikka mos kelmaydigan xabar va ma’lumotlardan iborat axborotlar xurujini uyuşhtirishga alohida ahamiyat bermoqda. Shuning uchun, “... axborot bo‘htonlari uyuşhtirilayotganda yoki geosiyosiy o‘yinlar davrida paydo bo‘ladigan turli talqinlar, soxta zarbalar mohiyatini dunyodagi voqealar bilan bog‘lab tushuntirib borishimiz kerak.

Axborotlarni imkon darajasida (birinchi bo‘lib) tarqatish bo‘yicha ham qator ishlarni amalga oshirish darkor. Axborot bo‘ronlariga o‘z vaqtida, lozim bo‘lganda chet tillarda tezkorlik bilan javob qaytarish muhimdir”^[32].

Sirasini aytganda, hozirgi davrda ommaviy axborot vositalarining barcha bo‘g‘inlari yaxlit tizim sifatida Vatan, millat va jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatlarini anglagan holda o‘zaro hamkorlik qilishlari g‘oyaviy tarbiya samaradorligining muhim shartidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch.– Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 135.
2. Qarang: Rossiyskaya sotsiologicheskaya ensiklopediya. – M.: NORMA-INFRA, 1998. – S. 202.
3. Qarang: “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining ommaviy-axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – B. 4-5.
4. Qarang: Panarin I.N. Informatsionnaya voyna i geopolitika. – M.: Pokolenie, 2006. – 345 s.
5. Qarang: Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri.– Toshkent: Fan, 1999. – B. 170.

³² Қаранг: Практическая демография / Под редакцией Рыбаковского Л.Л. – М.: ЦСП, 2005. – 96 с.